

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

UDK: 069:930.85(575.7)

FARG‘ONA VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI FAOLIYATI XUSUSIDA

Alisher Ahmadjonovich Aloxunov

Farg‘ona davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrası dotsenti, PhD.

alohunov@inbox.ru

tel: +99893-482-08-20

Qodirova Nodira Umidjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning ilmiy, madaniy va ma‘rifiy faoliyati yoritilgan. Muzeyning XIX asr oxirida shakllanishi, dastlabki kolleksiyalari, shuningdek, turli davrlardagi faoliyati keng tahlil qilingan. Tadqiqotda muzeyning moddiy-madaniy merosni saqlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish, arxeologik topilmalarni jamlash va madaniy-ma‘rifiy targ‘ibot ishlaridagi o‘rni ta‘kidlangan. Shuningdek, mustaqillik yillarida muzeyning yangilanishi, moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi va zamonaviy texnologiyalar tatbiq etilishi haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: muzey, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, arxeologiya, Farg‘ona muzeyi, ilmiy tadqiqot, ekspozitsiya, modernizatsiya.

Аннотация В данной статье рассматривается история формирования, этапы развития, а также научная, культурная и просветительская деятельность Государственного музея истории и культуры Ферганской области. Анализируется процесс становления музея в конце XIX века, его первые коллекции, а также деятельность в разные периоды. В исследовании подчеркивается роль музея в сохранении материально-культурного наследия, проведении научных исследований, сборе археологических находок и пропаганде культурно-просветительской деятельности. Также приводится информация о модернизации музея в годы независимости, укреплении его материально-технической базы и внедрении современных технологий.

Ключевые слова: музей, культурное наследие, исторические памятники, археология, Ферганский музей, научные исследования, экспозиция, модернизация.

Abstract This article explores the history of the formation, stages of development, and scientific, cultural, and educational activities of the State Museum of History and Culture of the Fergana Region. It analyzes the museum’s establishment in the late 19th century, its initial collections, and its activities during different periods. The study highlights the museum’s role in preserving material and cultural heritage, conducting scientific research, collecting archaeological finds, and promoting cultural and educational initiatives. Additionally, information is provided on the museum’s modernization during the years of independence, the strengthening of its material and technical base, and the implementation of modern technologies.

Key words: museum, cultural heritage, historical monuments, archaeology, Fergana Museum, scientific research, exhibition, modernization.

KIRISH

Muzey – mamlakatning madaniy, tarixiy ko‘zgusi. O‘tmishdan qolgan madaniyat, ma’rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig‘indisi muzeyda saqlanadi va namoyish qilinadi. Dunyodagi barcha davlatlar singari mamlakatimizda muzeylar madaniyat maskaniga aylanib bormoqda. Xalqimiz tarixiga oid moddiy va madaniy yodgorliklar, tarixiy hujjatlar muzey eksponati sifatida moziydan darak beradi.

Bugungi kunda muzeylar madaniy merosni saqlash bo‘yicha institut rolini bajarmoqdalar. Muzeylar o‘zlarining ijtimoiy vazifalarini bajarish jarayonida millatlararo aloqalarni, turli xil madaniy urf-odatlar va xalqlarga tayangan holda insoniyatning diniy va madaniy birligini saqlashga qodirdir[10:3].

Milliy salohiyatni belgilovchi omillardan hisoblanadigan muzeylarimiz milliy o‘zlikni anglashda, faxr va iftixor hissining kuchayishida muhim rol o‘ynaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ta’biri bilan aytganda: “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”[8]. Shunday ekan, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy va ilmiy, moddiy merosni chuqur o‘rganish va kelajakka yetkazishda muzeylar bebaho ahamiyatga ega. Bu faqat tarixga ehtirom emas, balki millat kelajagiga qo‘yilgan mustahkam poydevordir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekistonda muzeylar qurilishining boshlanishi dastlabki muzeylar tashabbuskorlari va yaratuvchilari – A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, V.F.Oshanin, V.Bartold singari Turkiston o‘lkasining rus tadqiqotchi olimlari nomi bilan bog‘liqdir. Ularning geografiya, geologiya, botanika, zoologiya, tarix bo‘yicha puxta yaratilgan asarlarida tarixiy-etnografik va boshqa qimmatli ma’lumotlar, shuningdek ayrim qadimgi yodgorliklar to‘g‘risidagi xabarlar keltirilgan. Ilmiy jamiyatlar, ayrim shaxslar, muassasalar o‘z fondlarini Turkiston o‘lkasi mineralogiyasi, zoologiyasi, numizmatikasi, etnografiyasiga oid ajoyib kolleksiyalar bilan

to‘ldirib oldilar. Shu munosabat bilan kolleksiyalarni birlashtirish va muzey tashkil etish masalasi ko‘tarildi.

Ma‘lumki, mamlakatimizda muzeychilik tarixi bir, bir yarim asrga borib taqaladi. Shu vaqtda O‘zbekistonning yirik shaharlari – Toshkent (1876-y.) va Samarqand (1896-y.) shaharlari qatorida Farg‘onada ham birinchilardan bo‘lib muzey tashkil qilingan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi O‘zbekistondagi eng keksa muzeylardan biridir. Mazkur muzeyining ochilishi tasodifiy bir vaziyat tufayli ro‘y berdi. 1894-yili Yangi Marg‘ilon shahriga qishloq xo‘jaligi va davlat mulki ministri keladigan bo‘lib qoldi. Ana shu tashrif munosabati bilan Farg‘onada birincha marta sanoat va qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi tashkil etildi. Xuddi shu paytda mazkur ko‘rgazma eksponatlari asosida muzey barpo etish fikri tug‘ilib qoldi. Keyinchalik bu g‘oya amalga oshirildi. Muzey eksponatlari ko‘rgazmaning qishloq xo‘jaligi va o‘rmonchilik bo‘limlaridagi uskunalardan, qurol-yarog‘dan, shuningdek, xususiy majmualar: vrach L.I.Smironovning etnografiyaga, kapitan N.P.Danilovning mineralogiya, turli shaxslarning numizmatikaga, K.F.Mauyerning zoologiya oid va boshqa kolleksiyalaridan tashkil topdi. Muzey 1899-yili rasmiy ravishda Farg‘ona xalq muzeyi nomini oldi. Keyin besh kishidan iborat Muzey komiteti ta‘sis etildi.

1895-yil 2-noyabrda Farg‘ona viloyat harbiy gubernatorining buyrug‘iga ko‘ra, gubernator uyining ikkinchi qavatidan to‘rtta xona muzey uchun ajratib berildi.

1897-yilda muzeyning nizomi tasdiqlangan bo‘lsa, 1899-yilning 26-may kuni “Farg‘ona viloyat xalq muzeyi”ning (uning birinchi nomi shunday edi) tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi. Bu vaqtga kelib muzeyda 2223 dona buyum va kitoblar yig‘ilgandi. Muzey gubernator uyining yordamchi xonasida joylashgan bo‘lib, odatda u dam olish va bayram kunlari ochiq bo‘lardi. Yoki viloyatga kelgan nufuzli mehmonlar uchun maxsus ochilar edi.

E‘tiborlisi shundaki, muzey shaxsiy hayriyalar evaziga faoliyat olib borgan. Muzey qoshida maxsus klub tuzilgan edi va ushbu klub a‘zolari turli kasb egalari (vrach, o‘qituvchi, injener, harbiy zobit, botanik tadqiqotchi, agronom va boshq.) bo‘lishiga qaramay, doimiy ravishda muzey zahiraxonalariga ashyolar topshirib turishardi. Klub a‘zolari orasida ayniqsa viloyat o‘rmon xo‘jaligi mudiri, biolog G.Ottendorf katta jonbozlik ko‘rsatib, viloyatning turli chekkalaridan yig‘ilgan noyob ashyolarni muzeyga topshirardi. U muzeyda o‘tkaziladigan tadbirlarning tashkilotchisi ham edi.

Shunday klub a‘zolaridan yana biri mashhur rus tadqiqotchisi Aleksey Pavlovich Fedchenko va uning rafiqasi Olga Aleksandrovna Fedchenkolar edi. Ularning muzeyga topshirgan gerbariylari va noyob hasharotlar kolleksiyasi hali-hamon muzeyning noyob ashyolari qatorida saqlanmoqda.

1911-yilda muzey yopilishga majbur bo‘ldi va faqat 1920-yilda Farg‘onadagi siyosiy tuzumning o‘zgarishi natijasida, hokimiyat sovetlar qo‘liga o‘tgach, muzey qayta ochildi va muzeyning maqsad va vazifasi ham o‘zgardi. Muzey kolleksiyasidan kelib chiqqan holda uning faoliyati ikkiga ajratildi. Shu yili viloyatda “Ommabop kutubxona” va “Farg‘ona shahar ilmiy

muzeyi” yangidan o‘z faoliyatini boshladi. Muzey Konstantinovskaya (hozirgi Turon) ko‘chasidagi binolardan biriga joylashtirildi. 1984-yilga qadar muzey mazkur binoda faoliyat ko‘rsatdi.

1922–1927-yillarda muzey ekspozitsiyasida qishloq xo‘jalik, hunarmandchilik, numizmatika, tabiat, tarix va etnografiya bo‘limlari mavjud edi.

1928-yilda yangi arxeologiya bo‘limi ochildi. Ushbu bo‘limning ochilishiga sovet davlatining markaziy shaharlaridan kelgan tadqiqotchilarning ekspeditsiya materiallari to‘plamlari sababchi bo‘ldi. Boris Aleksandrovich Latinin boshchiligidagi ilk arxeologik ekspeditsiya Farg‘ona muzeyida baza qurib, tadqiqotlarni olib borgan edi. Natijada muzeyning arxeologik ashyolari keskin ortib bordi. Ushbu ekspeditsiya tarkibida A.Bernshtam, V.Ranov, B.Jukov kabi kelgusidagi yetuk arxeologlar ham qatnashgan edi.

1938-yildan muzey “Viloyat o‘lkashunoslik muzeyi” sifatida faoliyat olib bora boshladi. Bu vaqtga kelib muzeyda kirish, tabiat, tarix va sotsialistik qurilish ekspozitsiyasi mavjud edi. Ekspozitsiylarning soni esa 15 mingdan oshdi[9:6].

Katta Farg‘ona kanali qurilishi vaqtida ham Farg‘ona muzeyi ilmiy baza sifatida muhim rol o‘ynadi. Kanal trassasini tadqiq qilish jarayonida arxeologlar Boris Sergeyevich Jukov va Yahyo G‘ulomovlar boshchiligidagi ekspeditsiya Farg‘ona muzeyi kolleksiyalarini boyitishda katta hissa qo‘shishgan. Yoki Quva shahristonida olib borilgan tadqiqotlar markazida ham Farg‘ona muzeyi xodimlari turardi. Vera Bulatova tomonidan aniqlangan olmasumul Quva Budda ibodatxonasi tadqiqotlari jarayonida muzey xodimlari faol qatnashib, islomdan oldingi ijtimoiy hayotni tassavvur etishda katta xizmat qilishgan.

Afsuski, topilmalarning asosiy qismi mamlakatimizning markaziy ilmiy-tadqiqot institutlari va muzeylariga olib ketib qolingan. Shunday bo‘lsa-da muzey, antik va ilk o‘rta asrlarga mansub qator arxeologik ashyolarga ega bo‘ldi. Shu yillar ilk bor Farg‘ona vodiysining yuqori paleolit va mezolit davri yodgorliklari o‘rganila boshlandi. Muzey fondlarida shu yillarda topilgan mikrolit tosh qurollarning bir nechtasi saqlanadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida muzey o‘z faoliyatini yanada kuchaytirdi. Uning xodimlari fondlarni farg‘onaliklarning frontdagi mislsiz jasorati va front ortidagi fidokorona mehnati to‘g‘risidagi hujjatlar bilan yanada boyitdi. Shu yillarda rassom Petr Maksimovich Nikiforov muzeyda samarali faoliyat olib borib, muzey ekspozitsiyalarini yaratish, illyustratsiyalar bilan boyitish va Markaziy Osiyodagi diqqatga sazavor joylar tasvirini yaratishda katta ishlarni amalga oshirdi. Hozirda muzeyda uning yuzdan ortiq akvarel, grafika va moy bo‘yoq usuldagi asarlari saqlanmoqda.

1950-yillarning boshlarida muzey Davlat Ermitaji (Leningrad) bilan hamkorlikda Farg‘ona vodiysidagi arxeologik ishlarni olib borishga astoydil kirishdi. Bu tadqiqotlarga Leningrad Universitetining bitiruvchilari Natalya Grigoryevna Gorbunova va Boris Solomonovich Gamburglar rahbarlik qilib, vodiydagi arxeologik obyektlarni to‘liq tahlil qilishga muvassar bo‘ldilar. Ular birinchi bo‘lib, vodiyning arxeologik xaritasini tuzib chiqishdi.

Ular bilan paralel ravishda Pomir–Oloy tog‘ tizmalarida arxeolog Aleksandr Natanovich Bernshtam, shimoli-sharqiy Farg‘onada Yuriy Aleksandrovich Zadneprovskiy, shimoli-g‘arbiy Farg‘onada Vadim Aleksandrovich Ranov va Boris Anatolyevich Litvinskiylar tadqiqot olib borishdi. Markaziy Farg‘onada olib borilgan tadqiqotlarda esa, ularning ekspeditsiyasi birgalikda ish olib borib, qator natijalarga erishdi. Ushbu tadqiqotlarning markazida Farg‘ona muzeyi turgan edi. Shu jarayonda yuqorida nomlari keltirilgan arxeologlarning barchasi muzey fondlarida tadqiqot olib borib, ilmiy arxivlarda o‘z materiallarini qoldirishgan. Hozirda muzeyning ilmiy arxivida 1952–1955-yillardagi tadqiqot hisobotlari saqlanib kelinmoqda. 1950-yillarning yakuniga kelib, muzey fondi uch mingdan ziyod arxeologik buyumlar bilan boyitilgan edi. Vaholanki, muzey ochilgan paytda faqatgina ikki dona arxeologik buyum mavjud edi xolos.

Muzey xodimlari 1960–1980-yillar oralig‘ida ham samarali tadqiqotlar olib borib, o‘nlab yangi arxeologik manzilgohlar va yuzlab predmetlarni ixtiro qilishgan edi.

80-yillarga kelganda muzey zahiraxonlarida 50 mingdan ziyod eksponatlar jamlangan edi. Endi muzey uchun yangi, zamonaviy muzey qurish zarurati tug‘ildi. Zotan yangi binoni loyihalashtirish ishlari 70-yillarda boshlangan bo‘lsa-da, faqat 1982-yilga kelib hozirgi Murabbiylar va Vatan ravnaqi ko‘chalari chorrahasida qurilish boshlandi. 1985-yilda qurilish tugallanib, muzey shu binoga ko‘chib o‘tdi.

Aytish joizki, muzeyda saqlanuvchi eksponatlarni ko‘pi sovet davrida xalqaro miqyosdagi ko‘rgazmalarda namoyish etilgan. 1952 va 1972-yillarda Leningrad (Sank-Peterburg, Rossiya) va 1978-yilda Kiyev (Ukraina)da Farg‘ona muzeyining qadimiy kolleksiyalari ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi.

Mustaqillik yillarida muzeylarning roli va vazifasi keskin o‘zgardi. Hukumat tomonidan muzeylarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Endi muzeylar o‘zbek xalqining boy va haqqoniy tarixini ochib berishga qaratilgan faoliyatni yo‘lga qo‘ydi. Respublikada birinchilardan bo‘lib Farg‘ona muzeyi 1996-yilda o‘z ekspozitsiyalarini to‘liq o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu ekspozitsiya tarixiy ketma-ketlikda, chuqur ilmiy asoslangan konsepsiyaga tayangan xolda, qadimiy davrlardan XX asr boshlariga bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan.

Mustaqillik yillarida Farg‘ona viloyatining ijtimoiy hayotida muzeyning roli keskin ortdi. Ayniqsa, xalqimizning boy va o‘ziga xos tarixini tiklashda, uni tadqiq etishda malakali muzey xodimlarining xizmatlari beqiyos. Bevosita ularning xizmatlari evaziga, nafaqat mamlakatimiz, balki butunjahon miqyosidagi tantanalarni nishonlashga muvaffaq bo‘linmoqda. Buyuk vatandosh larimiz Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yillik va Burhoniddin al-Marg‘inoniy ning 900 yillik yubileylari ana shular jumlasidandir[13].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-sonli qaroriga asosan Farg‘ona muzeyi “Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi” nomiga o‘zgartirildi[5]. Bugungi kunda muzey O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agayentligi Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi Nizomi asosida o‘z faoliyatini

tashkil etish va yuritish tartibini belgilaydi. Yangi tahrirdagi Nizom 9 bob, 36 banddan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Farg‘ona viloyati Adliya boshqarmasi Farg‘ona shahar Davlat xizmatlari markazidan 2024-yil 7-fevral kuni ro‘yxatga olingan.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 26-mayda imzolangan “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda “2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa meyoriy hujjatlar muzey xodimlari zimmasiga katta mas’uliyat ham yuklab, faoliyatini yanada rivojlantirib, yuqori bosqichlarga olib chiqish borasida dasturulamal bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda aytish joizki, Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi moddiy texnik holatini yanada yaxshilash maqsadida bir qancha ijobiy ishlar ham amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Farg‘ona viloyati hokimligi tashabbusi bilan 2021–2022-yillarda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan 3 mlrd. 100 mln. so‘m mablag‘ ajratilib, muzey binosida mukammal ta’minlash ishlari yakuniga yetkazildi[12].

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi 1913-sonli “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni[1], Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martdagi 98-sonli “Muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida”gi[2], 2002-yil 9-yanvardagi “Noyob zargarlik san’ati asarlarini asragan holda foydalanish va saqlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar to‘g‘risida”gi qarorlari[3], 2008-yil 12-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi[4], 2021-yil 26-noyabrdagi “Muzeylar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni[6] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[7] muzey faoliyatini yanada jonlantirib yubordi.

Hozirgi kunda Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi uch qavatli zamonaviy binoda joylashgan bo‘lib, alohida fondxonalarga ajratilgan. Ular zamonaviy talablarga javob beradi va kerakli jihozlar bilan ta’minlangan. Shuningdek, muzeyda ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma’rifiy ishlar va ma’ruzalar o‘tish uchun ham sharoitlar mavjud.

Dunyoning rivojlangan va boy tarixga ega davlatlari o‘z muzeylari faoliyatini takomillashtirish orqali ulardan mamlakatning turistik salohiyatini rivojlantirish borasidagi imkoniyatlaridan foydalanib kelmoqda. Buning natijasida umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati ortib borayotgan globallashtirish jarayonida dunyo tarixi va madaniyati uchun ahamiyatli bo‘lgan moddiy va ma’naviy yodgorliklarni keng ommaga targ‘ib qilish jarayoni kuchaymoqda. Buni amalga oshirishning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida esa jahonda muzeylarni virtuallashtirish amaliyoti keng qo‘llanilmoqda.

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining ham oldidagi muhim vazifalardan biri muzeyda ilg‘or va zamonaviy texnologiyalar, innovatsion g‘oyalarni tatbiq etgan holda xizmat sifatini oshirishdan iborat. Virtual muzeylar milliy madaniy yutuqlarning

yorqin timsoli hisoblanadi. Shu kunlarda muzeyda noyob eksponatlarni 3D ko‘rinishini ishlash va saytga joylash, elektron katalogni yaratish bo‘yicha ishlar qizg‘in davom ettirilmoqda. Bunday katalog muzey ihlosmandlariga virtual sayohat qilish imkonini bermoqda[11].

XULOSA

Bugungi kunda Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida tarix, tabiat, san‘at, ilmiy-oqartuv va fond bo‘limi va 10 ta (tasviriy san‘at, metal va sopol buyumlar, maxsus, mato buyumlar, hujjatlar, gazeta va plakatlar, yog‘och buyumlar, arxeologiya va numizmatika, tabiat, fotonegativ va suratlar) zahiraxonlar faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, muzeylarning moddiy-texnik holati ularning ilmiy-tadqiqot, saqlash va eksponatlarni namoyish qilish imkoniyatlarini belgilaydi. Yaxshi jihozlangan va texnik sharoitlarga ega muzeylar madaniy merosni uzoq muddat saqlash va uni keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatini beradi. Shu sababli, davlat tomonidan muzeylarni modernizatsiya qilish va texnik jihatdan rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida” Farmoni, 12.01.1998-yildagi PF-1913-son. <https://lex.uz/docs/-209722>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida” qarori, 05.03.1998 yildagi 98-son. <https://lex.uz/docs/-1667122>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Noyob zargarlik san‘at asari buyumlarini saqlash va tejamkorlik bilan foydalanilishini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, 09.01.2002-yildagi 13-son. <https://lex.uz/uz/docs/-1678845>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida” Qonuni, 12.09.2008-yildagi O‘RQ-177-son. <https://lex.uz/uz/docs/-1391728>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017—2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori, 11.12.2017-yildagi 975-son. <https://lex.uz/docs/3451889>
6. O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimchalar kiritish haqida” Qonuni, 26.11.2021 yildagi O‘RQ-732-son. <https://lex.uz/docs/-5744524>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 27.05.2022 yildagi PQ-261-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6040013>
8. Shavkat Mirziyoyev: mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. <https://xs.uz/uzkr/post/>
9. Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi. – Toshkent, 2015.

10. Ganiyeva Ch.X. Muzeyshunoslik //O‘quv qollanma. – T.: «Barkamol fayz media», 2018. – 168 b.
11. <https://360.madaniymeros.uz/fargona1/index.php>
12. Madiyorov B. Farg‘ona tarixi va madaniyati muzeyi ta’miratlanmoqda. “Xalq so‘zi” gazetasi. 01.02.2024. <https://xs.uz/uz/post/fargona-tarikhi-va-madaniyati-muzeji-tamirlanmoqda>
13. Mazkur ma’lumotlar Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari E.R.Rahimov hamda muzey xodimlari J.Toybolayev, O‘.Xodjayevalardan olindi.